

Tyutorlar mas'uliyati

Buxoro davlat universiteti tyutori Kamilova Lyubovning “Yuksak mas’uliyat egalari-tyutorlar” mavzusida tayyorlagan maqolasi.

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda ta’lim sohasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Zotan, ta’limga tikilgan sarmoya kelajakka tikilgan sarmoyadir. Bugun ekilgan ma’rifat urug’lari ertaga yuz hissa, ming hissa hosil bermog‘i shubhasizdir. Iqtidorli yoshlarni qo‘llab quvvatlash, ularga imkoniyatlar eshigini yanada kengroq ochish, yutuqlarini rag‘batlantirish maqsadida ko‘plab musobaqa va tanlovlardan, olimpiadalar o‘tkazilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi “Respublika oliy ta’lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 563-sonli qarori hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 13-sentabrdagi 390-sonli buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minalash maqsadida Buxoro davlat universitetida joriy etilgan “tyutorlik” lavozimining vazifalari hamda ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror bilan uzoq vaqtdan beri kutilgan bir qator tizimli yangilik va o‘zgarishlar kiritildi. Ular qatorida 2021-yil 1-sentyabrdan boshlab talabalar bilan ishlash bo‘yicha “guruh murabbiyi” instituti bekor qilinib, uning o‘rniga talabalar bilan ishlaydigan “tyutorlar” amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. 2021 yil 1-noyabrdan Buxoro davlat universitetining San’atshunoslik fakulteti tyutori lavozimiga ishga qabul qilindim.

Tyutor – bu oliy ta’lim muassasasida faoliyat yuritadigan, tegishli malaka talablariga javob beradigan, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan xodim bo‘lib, o‘ziga biriktirilgan guruh talabalarining ta’lim olishlarida, shuningdek, darsdan bo‘sish vaqtlanmini mazmunli tashkil etishlarida ko‘maklashadi, ularni insonparvarlik,adolat, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, beshta muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan to‘garak va klublarga jalb etish, ta’lim olish jarayonida yuzaga keladigan barcha masala va muammoni o‘rnatalgan tartibda bartaraf etishga qaratilgan faoliyatni olib boradi. Talabalar turar joylarida, ijaradagi va xususiy xonadonlarda yashovchi talabalarining yashash manzillariga muntazam borib, u yerda yaratilgan sharoitlar va talabalarining muammolarini o‘rganib borish va ularni yaxshilash choralarini ko‘rish faoliyati bilan shug‘ullanadi. O‘z faoliyatida amaldagi qonun hujjatlari, BuxDU ichki tartib va odob-axloq qoidalari hamda tyutortik faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi NIZOMga rioya etadi.

Tyutorlik faoliyatimning asosiy maqsadlari ta’lim va tarbiya jarayoni uyg‘unligini samarali tashkil etish; ta’lim muassasasidagi ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, o‘quvchilar davomatini yaxshilash bilan bog‘liq masalalarda Jamoat kengashi va mahallaning o‘rnini kuchaytirish; ta’lim muassasasi va talabalar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish; talabalarga ijtimoiy-ma’naviy va psixologik yordam ko‘rsatgan holda o‘zini yanada yaxshiroq anglash, o‘qish va hayotda to‘g‘ri

qaror qabul qilish, tanlagan kasbiga muhabbatni oshirish; talabalarning dars mashg'ulotlarini o'zlashtirib borishini tahlil qilish va darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlarini ta'minlash; ularning ijtimoiy (oilaviy) holatidan doimiy xabardor bo'lishdan iborat.

Ma'rifatparvar o'zbek shoirasi Anbar Otin ta'biri bilan aytganda:

Jahon ravshan ziyoyi ilmdandir,

Ko'ngil sofi safoyi ilmdandir.

Har bir yosh avlod qalbiga jahon ziyoysi-yu ko'ngil safosi bo'lgan ilm nurlari o'qituvchilar orqali kirib boradi. Men ham ana shunday charog'on umrlarning charog'boni bo'lgan kasb sohibi, ya'ni, muallim bo'lganligimdan faxrlanaman.

Zero, talabalar yosh nihol – uni qanday parvarish qilsang, ertaga shunday hosil beradi. Ularning qalblari oppoq qog'oz, yillar o'tib millat ko'zgusida akslanadi. Shu boisdan ham ertamiz egalari bo'lmish bugungi yosh avlodni har taraflama yetuk va barkamol insonlar qilib kamolga yetkazish bugungi kunda hukumatimizning ustuvor siyosatini tashkil qiladi.

Taniqli ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy ta'biri bilan aytganda: "Jahonga taraqqiy qilgan har bitta davlat, eng avvalo, ilm-ma'rifat bian taraqqiy qiladi".

Prezidentimizning: "Biz uchinchi renessans davrini yaratamiz. Farzandlarimiz orasidan yana Ibn Sinolar, Xorazmiylar, Beruniylar yetishib chiqadi. Buning uchun barcha-barcha shart-sharoitlarni, imkoniyatlarni yaratib beramiz" qabilidagi fikrlari zamirida ham ta'lim va tarbiya masalari yotadi.

Men faoliyat yuritayotgan BuxDU San'atshunoslik fakulteti talabalarini ham turli tanlovlarda faxrli o'rirlarni olib kelmoqdalar. Bir necha yillik pedagogik faoliyatim davomida tuman va viloyat miqyosida o'tkazilgan turli tanlovlarda faol qatnashib kelmoqdaman hamda faxrli o'rirlarga sazovor bo'ldim. Ilmiy-ommabob va publisistik maqolalarim gazeta jurnallarda nashr etilgan. Talabalarimiz ko'rik tanlovlarda, festivallarda faxrli o'rirlarni egallab kelmoqdalar va eng muhimini men ta'lim bergen talabalarim har turli sohalarda o'z kasbining yetuk mutaxassisini bo'lib mamlakatimiz ravnaqi va xalqimiz farovonligiga hissa qo'shib kelmoqdalar.


Ming shukrlarki, taqdiri azal ko'plab ustozlar qatori menga ham xalq koriga yaraydigan insonlarga ta'lim berish baxtini nasib etgan. Shubhasizki, ustozlar kelajak bunyodkorlaridir. Jonajon xalqimning buyuk kelajagini bunyod etishda o'z hissamni qo'sha olayotganidan baxtiyorman.











Tyutor:

L. Kamilova.